

## MAVSUM-MAROSIM QO'SHIQLARI TAHLILI



**Asatillo Sunnatovich Sunnatillayev**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI Ilmiy tadqiqotlar  
innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi  
boshlig'i, mustaqil izlanuvchi  
[assunnatillayev92@bk.ru](mailto:assunnatillayev92@bk.ru)

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-01>

**Annotatsiya:** Xalqimizning ko'p asrlik ma'nnaviy merosi sifatida vujudga kelgan marosimlar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Marosimlar o'zida xalqning asriy an'analari, turmush tarzi, mentaliteti, qolaversa, g'oya va qarashlarini bevosita aks ettiruvchi voqelik sifatida gavdalananar ekan unda xalq turmushining etnik va estetik jihatlari o'z ifodasini topadi. Ushbu marosimlar tarkibining verbal qismini tashkil etuvchi qo'shiqlar esa marosim qo'shiqlari hisoblanadi. Ushbu maqolada mavsumiy marosimlar va ularda kuylanuvchi qo'shiq va aytimlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Marosim, mavsum, qo'shiq, folklor, o'lan, xalq, an'ana, urf-odat, ma'nnaviyat, Navro'z.

**Аннотация:** Обряды, возникшие как многовековое духовное наследие нашего народа, прошли долгий исторический путь и стали неотъемлемой частью народной жизни. Обряды воплощаются как реальность, непосредственно отражающая вековые традиции, образ жизни, менталитет, а также идеи и взгляды народа, в них находят свое выражение этнические и эстетические аспекты народного быта. Песни, составляющие вербальную часть этих обрядов, считаются обрядовыми песнями. В данной статье научно проанализированы сезонные обряды и особенности исполняемых в них песен и сказаний.

**Ключевые слова:** Обряд, сезон, песня, фольклор, улан, народ, традиция, обычай, духовность, Навруз.

**Abstract:** Rituals, which emerged as a centuries-old spiritual heritage of our people, have traversed a long historical path and become an integral part of folk life. These rituals are embodied as a reality that directly reflects age-old traditions, way of life, mentality, as well as the ideas and views of the people. They express the ethnic and aesthetic aspects of folk everyday life. Songs that constitute the verbal component of these rituals are considered ritual songs. This article provides a scientific analysis of seasonal rituals and the characteristics of the songs and legends performed within them.

**Keywords:** Ritual, season, song, folklore, ulan, people, tradition, custom, spirituality, Navruz.

O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixida xilma-xil marosimlar va marosim qo'shiqlarini yaratdi. Binobarin, o'zbek marosim qo'shiqlari bevosita marosimning tarixiy taqdiri bilan bog'liq holda hayotdagi ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'nnaviy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida astasekin yo'qolib ketayotgan bo'lsa-da, biroq ularning barchasi qanday g'oyaviy yo'nalishda bo'lganligidan qat'iy nazar o'tmishda xalqning amaliy faoliyatida qo'llanilib kelingan. Darhaqiqat, hozirgi jarayonda ham an'anaviy marosimlar xalqimizning turmushi bilan bog'liq holda hayot kechirmoqda. Shu tufayli marosim qo'shiqlarini izchil o'rganish xalq tarixini o'rganishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu qo'shiqlar xalqimizning qadimiyl omaviy bayramlari, oilaviy rasm-rusumlar bilan bog'liq. Abu Rayxon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida

«Navro‘z» bayramini ma’naviy meros sifatida tilga oladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, mavsum va marosimlarga oid xalq qo‘shiqlarining tarixi qadim o‘tmish zamonalarga borib taqaladi.

Dunyoda barcha xalqlar turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlaydi. Mavsumlar, diniy e’tiqodlar, tarixiy voqeа-hodisalar, milliy udumlar xalq bayramlari mazmunini tashkil etadi. Bayramlarning o‘tkazilishiga qarab o‘sha xalqning tarixi, milliy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki xalq shodiyonalarida raqsga tushiladi, qo‘shiqlar kuyylanadi, milliy liboslar kiyiladi.

Olimlarning ma’lumot berishicha, mavsum-marosimga oid o‘zbek xalq bayramlarining tarixi minglab yillar bilan o‘lchanar ekan. Ularning ayrimlari yil fasllarining qulay yoki noqulay kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan: yil quruq kelib, yomg‘ir yog‘masa «Yomg‘ir chaqirish» marosimi (Sust xotin); bug‘doy, sholi boshoqlari yetilgan paytda shamol ularni payxon qilsa, shamol to‘xtatish (Choy momo); don mahsulotlarini shopirish paytda shamol bo‘lmasa, shamol chaqirish (Yo, Haydar); yil sovuq kelsa, quyoshga topinish; umuman, omadsiz yilda qurbanlik keltirish marosimlari o‘tkazilgan. Ushbu marosimlarda marosim qo‘shiqlari yetakchi hisoblanadi. Xalq bu qo‘shiqlarda so‘zning magiyasiga alohida ishonch bilan munosabatda bo‘lgan. Aytileyotgan fikrlarning amalga oshishiga to‘la ishongan. Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Navro‘z», «Ramush og‘am», «Boboxvora» kabi o‘ndan ortiq mavsum-marosim bayramlari xususida ma’lumot beriladi.

Sobiq sovet tuzumi davrida xalq qadriyatlari qatori so‘zning mo‘jizaviy quvvatini inkor etish odati an’ana tusiga kirgan edi. Natijada xalqimizning asrlar bo‘yi davom etib kelayotgan yomg‘ir chaqirish, shamol to‘xtatish, qurbanlik qilish orqali mushkul vaziyatni yumshatish kabi mavsum va marosim amallariga nolisandlik munosabati paydo bo‘lgandi. Ammo lekin yuqorida qayd etilgan marosimlarning urf-odatlar sifatida o‘tkazilishi xalq hayotida ijobjiy natijalar bergen. Shuning uchun xalqimiz ularga hurmat bilan qaragan.

O‘zbek to‘y marosim qo‘shiqlari M.Alaviya, B.Sarimsoqov, O.Sobirov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo‘rayev, O.Ismanova va boshqa folklorshunoslar tomonidan yozib olinib, nashr etilgan. O‘zbek to‘y marosim folklorining o‘ziga xos tabiatni, janrlar tarkibi, tasnifi va marosim qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlari kabi masalalar M.Alaviya, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, S.Davlatov, O.Ismanova, L.Xudoyqulova larninig ishlarida tadqiq etilgan.

Mavsum bilan bog‘liq qo‘shiqlarga «Sust xotin», «Qo‘sh haydash», «Lola sayli», «Choy momo», «Mayda», «O‘roqchilar qo‘shig‘i», «Yas-yusun» janrlari mansubdir. Mavsum va marosimning kesishgan nuktasini biz «Sust xotin» da ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu yig‘in an’anaviy urf-odat ekanligi bilan marosim, bahorning aprel, may oylarida o‘tkazilishi bilan esa mavsumga aloqador sanaladi.

Oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlariga (farzandning tug‘ilishi, xatna va nikoh to‘yi, motam-marosimi bilan bog‘liq yig‘i-yo‘qlov, motam yor-yorlari va shomon aytimlari bilan bog‘liq kinna, badik) ni kiritish mumkin.

Quyida mavsum-marosim va oilaviy-maishiy marosim hamda ularda kuylanuvchi qo‘shiqlar tahliliga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Bizning fikrimizcha, ushbu etnomadaniy tadbirlar mavsumiy (kalendar) xarakterga ega bo‘lib, ularda insonning tabiatdagi o‘zgarishlar (uyg‘onish, so‘lish yoki fasllarning almashishi)ga munosabati aks etadi. Tabiatdagi o‘zgarishlar inson ruhiga, kayfiyatiga, sog‘ligiga ta’sir etgan, ibtidoiy davrdagi kosmologik qarashlar va tasavvurlar beiz ketmagan. Inson o‘zini, hayat tarzini, turmushini tabiat in’omlari bilan bog‘liqligini qanchalik chuqr anglagach, uni shunchalik rang-barang qarashlar, urf-odatlar va marosimlarda aks ettirgan.

O‘zbek etnik madaniyatida kalendar bayram-marosimlari muhim o‘rin tutadi. Ularga «Navro‘z bayrami», daraxtlar kurtak yoza boshlaganida o‘tkaziladigan «Tolbargak», yerga urug‘ qadalayotganida «Birinchi urug‘ qardash», «Shox moylar», «Sust xotin», «Qo‘sh haydash», «Lola sayli», «Choy momo», issiq o‘lkalardan qushlar qaytib kela boshlaganida «Qaldirg‘och keldi», «Qushlar bayrami», «Sumalak bazmi», «Xalim bazmi», gullar ochilganida «Gul sayli», «Qizil gul sayli», «Lola sayli» mevalar pishganida shahar qizlarining qishloqdagi qarindoshlari yoki dugonalarinikiga borish-kelishi - «Bahorlashib kelish» marosimi misol bo‘lishi mumkin.

Yozda «Bog‘ sayli», «Uzum sayli», kuzda «Do‘lana sayli», yil bo‘yi yetishtirilgan hosilni yig‘ib olishga bag‘ishlangan «Hosil bayrami», «Mehrjon» bayrami, qishda esa «Birinchi qor», «Qorxat», «Qorbo‘ron o‘yini», «Qurultoy bayrami», kunlar qattiq sovib ketganida sandal atrofiga to‘planib «Topishmoq top», «G‘azalxonlik», «Ertakxonlik», «Tez aytish», «Hikoyaxonlik», «Lof aytish», «Dostonchilik», «Kitobxonlik», «Munozara», «Aytishuv», «Masalchilik», kabi an’anaviy o‘yinlar o‘tkazilgan. Qizlar yig‘ilishib, madaniy dam olish marosimi- «Halfana» uyushtirishgan.

Bahor fasli marosimlari o‘zbek xalqi etnik madaniyatida boshqa marosimlarga nisbatan ko‘proq uchraydi. «Ma‘lumki, bahorda nafaqat tabiat, balki insonning o‘zi ham o‘zgaradi. Inson bahor kabi noziklashib, nafislikka, go‘zallikka, yangilikka chanqoq bo‘lib qoladi. Bu vaqtida kishi har bir hodisadan yangilik va go‘zallik qidirib qoladi. Odamlar tabiatida ro‘y bergen ana shu holat tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan har bir hodisani poetik ma’noga ega bo‘lgan tadbir, marosimga aylantirib yuboradi.»

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o‘zbeklarning hayoti ham ko‘p jihatdan tabiatdagi o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lgan. Yil fasllarining o‘zgarishi, har bir faslning o‘ vaqtida xalq tasavvurida shakllangan tarzda kelishi oxir pirovardida hosilning mo‘lligini yoki dehqon mehnatinning zoye ketishini belgilagan. Mavsumiy mehnat marosim qo‘sishlariga «Loy tutish», «Shox moylar», «Oblo baraka» marosim qo‘sishlarini kiritish mumkin.

«Loy tutish» - bahor faslining ilk kunlarida loyiqa o‘tirib qolgan ariq-zovurlarni mahalla-qishloq ahli birgalashib, ko‘pchilik bo‘lib tozalashi, ariq qazish va ularni yangi mavsumga tayyorlash ishlari bilan bog‘liq marosim. Loy tutishda ariqlar tozalangan, butun aholi bu ishda faol ishtirok etgan. Bevosita ariq tozalash ishlini bajarayotganlar, ularning yonidan o‘tib ketayotgan odamga ketmon yoki belkurakda loy tutishgan. Yo‘lovchi o‘ziga loy tutilgandan so‘ng yo biron qo‘sish, yo boshqa hunarini ko‘rsatib ishlayotganlarni mammun qilishi lozim hisoblangan.

«Shox moylar» - erta ko‘klamda birinchi marta dalaga qo‘sh olib chiqqan dehqonlar bo‘g‘irsoq pishirilgan yog‘ bilan ho‘kizlarining shoxini moylab qo‘yish udumi. Bo‘lajak hosilning mo‘l bo‘lishiga niyat qilib qo‘shga qo‘shilgan ho‘kiz shoxi yog‘ bilan moylangan va dastlab piri badavlat bobo dehqon qo‘sh haydab bergen. Bu marosim ham gavjum to‘plangan odamlar ishtirokida sayil o‘tkazish, xursandchilik bilan amalga oshirilgan.

Navro‘z bayrami butun O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Eron, Pokiston va Shimoliy Hindiston xalqlari etnik madaniyatiga taalluqli ijtimoiy voqelikdir. Navro‘z yilning boshlanishi bo‘lib, odamlarni tabiat quchog‘iga chorlovchi, sof havo, olam go‘zalligidan, quyosh taftidan babra oldiruvchi, zerikarli va qahraton qishdan bezgan odamlarga his-tuyg‘u va zavq beradigan bayramdir. Unda ajdodlarimizning ilk mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning ma‘naviy qarashlarigacha joy olgan.

Navro‘z bayramiga tayyorgarlik bir hafta-o‘n kun oldin boshlanadi. Bekalar «uy ko‘taradilar», uylar, hovlilar, ariqlar va ko‘chalar yaxshilab tozalanadi, hamma o‘ziga yangi liboslar tiktiradi.

Xalqimizning qadimiy an’anasiga ko‘ra, navro‘z bayrami hut oyining oxirgi kechasi, ya’ni 20-martdan 21-martga o‘tar kechasi oila davrasida «Qozon to‘ldi» udumi bilan boshlangan. Bu marosim «obi rahmat» kechasi yoki yangi yil arafasidagi oqshom o‘tkaziladi. Bunda har bir oilada birorta tansiq taom pishiriladi va ovqat tayyorlayotganda qozonning to‘la bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. «Qozon to‘ldi» sof oilaviy udum bo‘lib, har bir oila o‘z imkoniyatiga qarab tansiq taomlar (ko‘pincha palov), ko‘k somsa, bo‘g‘irsoq tayyorlaganlar.»

Navro‘z kunlari bemorlar, keksalar, qarindosh-urug‘lar, yetim-yesir, beva-bechoralarni yo‘qlash har bir kishining burchi hisoblanadi. Mehmonnavozlik, odamshavandalik yaqqol namoyon bo‘ladi, urush-janjal man qilinadi. Ko‘rinib turibdiki, navro‘z kunlari hamma joyda tartib-intizom, o‘zaro hurmat-e’tibor hukm suradi. «Navro‘z ozodlik va erkinlik kuni hisoblangan. Chunki bu kun mehnat qilish ayb hisoblangan, odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlaridan ozod bo‘lganlar». Bayram kunlari kishilar o‘zlarini shodu xurram bo‘lishga chog‘laganlar.

Ayollar goh dardlashib, goh fikr almashib, goh qo‘sish, laparlar kuylab, o‘yin-kulgu qilib sumalak kavlaganlar. Sumalak pishirgani chiqqan ayollar o‘zları bilan ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, turli xil pishiriqlar olib kelishgan. Qozon boshida ushbu taomlardan tanavvul qilib,

yarim tungacha o‘yin-kulgu bilan sumalak pishirganlar, qizlar va yoshroq kelinchaklar dastyorlik vazifasini bajarishgan. Sumalak pishirish bahonasida, keksa-yu yosh ayollar diydorlashib, oz bo‘lsa-da, turmush tashvishlarini unutishgan, yoshi ulug‘ ayollardan ibratli hikoyalar tinglashgan, bir-birlari bilan dardlashib, yengil tortishgan. Yosh kelinchaklar mahalla yoki qishloq ayollari bilan yaqindan tanishishgan.

Shuning uchun sumalak pishirish marosimi kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, ular qalbida mehr-oqibat uyg‘otuvchi, yaxshilikka yetaklovchi marosimlardan birdir. Har bir vohada Navro‘z sayllari katta tantana qilingan. Vohalarga xos bo‘lgan qo‘sishlarda ona tabiatning o‘ziga xos xislatlari, bahor faslini insoniyat orziqib kutgani, yana shunday ko‘klamlarga yetishlik g‘oyalari tarannum etilgan. («Sumalak», «Hamal», «Navro‘zjon», «Lola gulim», «Keldi bahor», «Vaq-vaqa sumalak» va h.o.).

Odatda yoz fasli, kuzda hosilning mo‘l bo‘lishi uchun tayyorgarlik ko‘rish, ertapishar meva va poliz ekinlarini yig‘ish ishlari bilan o‘tkaziladi. Olim B.Sarimsoqovning ko‘p yillar mobaynida olib borgan izlanishlari natijasi o‘laroq «Choy momo» marosimi haqida ayrim ma’lumotlar to‘plandi. Olimning aytishicha, bu odad yozgi marosimlar qatoriga qo‘silib, Janubiy Qozog‘istonda yashovchi o‘zbeklar orasida uyushtiriladi. Dalada pishib yetilgan bug‘doy surunkali shamol oqibatida yerga egilib ketishi natijasida nobud bo‘lishi mumkin. Ana shunday kezlar «Choy momo» marosimi o‘tkaziladi va tabiatdan shamolni to‘xtatish so‘raladi.

«Oblo baraka» - hosilni o‘rib-yig‘ish ishi tugallanish arafasida bug‘doy o‘rishga kelgan xasharchilar ishtirokida o‘tkazilgan marosim. Xasharchilar daladagi bug‘doyni o‘rib tugattyotganlarida, bir parcha o‘rilmagan joy qolganda har bir o‘roqchi shu daladagi eng oxirgi bug‘doyni o‘rib olish uchun jadal ishlay boshlagan. Chunki eng oxirgi tutam bug‘doy «ona bug‘doy» hisoblangan va shuning uchun ham ana shu bug‘doyni o‘rib olgan kishi uning belini bog‘lab, uyiga olib ketgan. «Ona bug‘doy» borgan xonadonga qut-baraka keladi deb niyat qilgan o‘roqchilar har tarafdan qistab o‘ra boshlaydilar. So‘nggi tutam bug‘doya qo‘li yetgan o‘roqchi «Yettim, yettim, oblo baraka bersin!» - deb uni o‘rib olgan. O‘roqchi oxirgi tutam bug‘doyni kelasi yil bahorgacha avaylab saqlagan va ko‘klamda uning bir qismini yerga sepiladigan urug‘likka, qolganini esa ro‘zg‘orga un qilish uchun mo‘ljallangan donga aralashtirganlar.

Kuzda esa «Shamol chaqirish» marosimi o‘tazilgan. Endi yig‘ilgan don hosilni po‘chog‘idan ajratish uchun shamol kerak. Don yanchilgach, uni shamolda shopiradilar va somonni shamol uchirib, don tozalanadi. «Yo, Haydar» qo‘srig‘i aynan anna shu marosim belgisi hisoblanadi.

Kuz fasliga oid bayram-marosimlardan «Hosil bayrami» ya’ni «Mehrjon» bayramida o‘lkamiz xalqlariga xos etnomadaniy belgilar keng o‘z aksini topadi. Unda, birinchidan, «Mehnat, mehnatning tagi - rohat» degan xalq maqolining ijtimoiy-falsafiy mohiyati aks etadi, ikkinchidan, insonning tabiat kuchlaridan oqilona foydalanishi baxt-saodat, farovonlik keltirishi haqidagi tushunchalari mujassamlashgan. Kuz tabiatning shunchaki vaqt va makondagi o‘zgarishi emas, u inson xatti-harakatlarining, intilishlarining, rejalarining u yoki bu ko‘rinishda ro‘yobga chiqqanini (chiqmaganini) ifodalovchi natija, yakun, ko‘rsatkich, ramzdir. Shuning uchun, kuz mavsumiga oid bayramlarda ramziy ma’no mavjud.

Kishilar tabiat uyg‘onishi, dalalarda ish boshlanishini «Navro‘z» (yil boshi) sifatida tantana qilgan bo‘lsalar, o‘simliklar dunyosining o‘sishidan to‘xtab, (uyquga ketishi) va mehnat mavsumi yakunlanishini «Mehrjon» (Yil yarmi) deb nishonlaganlar. Bu bayramlar kimlardir tomonidan o‘ylab topilgan. Ular koinot, tabiat qonuniyatları, Quyosh va Yer o‘rtasidagi munosabatlardan asosida vujudga kelgan. Jumladan, «Navro‘z» bahorgi kun-tun tengligini qayd qilsa, «Mehrjon» kuzdag‘i o‘sha holatni ta‘kidlagan. «Mehrjon» bayrami, bir tomonidan, koinot va yerga jon ato etib turgan quyoshni qadrlashga da‘vat qilgan, ikkinchidan barchani qish g‘amini yeyishga undagan.

Hosil bayrami qadimda bozor maydonlarida, keyinchalik bog‘lar, maydonlar, xiyobonlar va ochiq sahnalarda uyushtirila boshlandi. Ayollar bu bayram munosabati bilan sochlariiga, qo‘llariga xina, qoshlariga o‘sma qo‘yib tayyorgarlik ko‘rishgan bo‘lsa, erkaklar uloq, ko‘pkari uchun otlarini hozirlashgan. Ushbu bayram sayllarida turli xil poliz mahsulotlariga, mevalarga

atab qo'shiq va laparlar kuylangan, tabiatning o'ziga xosligi tarannum etilgan.(«Qovun» va «Tarvuz»ga atalgan qo'shiqlar, ho'l mevalarni ta'riflovchi qo'shiqlar shular jumlasidandir).

Bayram tantanali holda boshlangan, ilg'orlar va g'oliblarga turli mukofotlar topshirilgan. Badiiy qismda san'atkorlar dala mehnatkashlari dilini xushnud etganlar. Shu atrofdagi boshqa maydonlarda esa turli xil qiziqarli o'yinlar o'ynalgan, har xil tomoshalar, jumladan mas'harabozlar, dorbozlar chiqishlari, «Uloq», «Poyga», «Qiz quvdi» kabi ot sporti o'yinlari o'tkazilgan.

Qish faslida, ayniqsa qishloq joylarida odamlarning bo'sh vaqtি ko'proq bo'ladi. Ular sandal atrofida turli so'z o'yinlari o'ynashadi, qo'shiq va laparlar aytishadi, she'rxonlik, g'azalxonlik qilishadi. Qish faslida o'tkaziladigan marosimlarda rekreativ belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday marosim - o'yinlardan biri «Xalfana»dir. Qish faslida mahalla, qishloq qizlari haftada bir marta to'planib «Xalfana» o'ynashgan. Xalfana balog'at yoshidagi qizlarning haftada, oyda bir marta to'planib, hordiq chiqarish marosimidir.

O'zbek xalqi etnik madaniyatida nafaqat tarixiy-madaniy an'analar, shu bilan birga, bugungi yoshlari ma'naviyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-tarbiyaviy tajribalar ham mavjudki, ulardan samarali foydalanish istiqlol mafkurasini badiiy-emotsional va ommaviy vositalar bilan boyitadi. Buning uchun esa, etnomadaniy an'analarni milliy istiqlol g'oyasi maqsadlari bilan uyg'unlashtirish, jamiyat taraqqiyoti kun tartibiga qo'yayotgan vazifalarga yo'naltirish, hatto o'zgarib borayotgan dunyo talablariga muvofiq modernizatsiyalash zarurdir.

Xalq marosimlari shakl va mazmunidan qat'i nazar bugungi kunni o'tmish bilan bog'lab turuvchi ma'naviy zanjir hisoblanadi. Marosimlarning mo'jizali ta'siriga ishonch ham xalq vakillarining halollligi, tabiatan pokizaligi bilan uzviy bog'liqdir. Marosim folklori xalq qadriyatlарining go'zal namunalari sifatida milliy dunyoqarash va mafkurani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, hozirgacha saqlanib va sayqal topib kelayotgan turli-tuman marosimlarda ijo etilgan qadimiay aytim-qo'shiqlar insoniy va axloqiy qadriyatlар bo'lib, xalqimizning asrlar osha moziydan sado berib kelayotgan og'zaki ijodida o'z aksini topgan.

### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent: O'z FA nashriyoti, 1959.
2. Alaviya M O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent: Fan, 1974.
3. Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi: Sobirov O. Kelinoy qo'shiqlari. Xalq qo'shiqlari va termalari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
4. Sarimsoqov. B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent.: Fan, 1986.
5. Mirzaeva M., Musaqulov A. Ostonasi tillidan. To'y marosim qo'shiqlari.–Toshkent: Fan, 1992.
6. Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. To'plab, nashrga tayyorlovchi, kirish so'zi va izohlar muallifi: Jo'raev M. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
7. To'plab, nashrga tayyorlovchi: Safarov O. To'y muborak yor-yor. To'y marosim qo'shiqlari. Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
8. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: Jo'raev M, Ismonova O. Qizil gulning g'unchasi. «Kelin salomlar». Toshkent: Fan, 1999.
9. Xudoyqulova L. Surxondaryo to'y marosim qo'shiqlari: Filol. fanlari nom. diss. Toshkent: 2012.
10. Jo'rayev M, Xudoyqulova L. Marosimnoma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent.: - 2008. 72-b.
11. Jo'rayev M. Navro'z bayrami. Toshkent.: O'zbRes FA «Fan» nashriyoti. 2009. 73- b.
12. Qoraboyev U., Ibrohim Xudoyor. Navro'z. –Toshkent.: Akademiya, 2000. 11- b.